HARBIY TA’LIM JARAYONIGA AXBOROT TEXNOLOGIYALARINI JORIY ETISH MAZMUNI

Egamov Xusan Yusupovich
Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston milliy universiteti Harbiy tayyorgarlik o‘quv markazi Umumqo‘shin tayyorgarligi sikli o‘qituvchisi, rezervdagi podpolkovnik

Annotatsiya: Ushbu maqolada harbiy ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Pedagogika, zamonaviy kompyuter texnikasi, kommunikatsiya va axborot texnologiyalari, elektron o‘quv qo‘llanma, gipermatn, gipermedia, grafika, multimediya, animatsiya.

СОДЕРЖАНИЕ ВНЕДРЕНИЯ ИНФОРМАТSIОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПРОЦЕСС ВОЕННОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Аннотатsiя: В статье рассматривается внедрение информатsионных технологий в процесс военного образования.

Ключевые слова: Педагогика, современная компьютерная техника, коммуникатsионные и информатsионные технологии, электронный учебник, гипертекст, гипермедиа, графика, мультимедиа, аниматsiя.

THE CONTENT OF INTRODUCING INFORMATION TECHNOLOGIES TO THE MILITARY TRAINING PROCESS

Abstract: This article discusses the introduction of information technologies into the military education process.

Keywords: Pedagogy, modern computer technology, communication and information technologies, electronic textbook, hypertext, hypermedia, graphics, multimedia, animation.

Kirish

XXI asrda axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Eski katta kompyuterlar o‘rniga yangi ixcham noutbuklar, eski g‘ishtli telefonlar o‘rnini zamonaviy smartfonlar egallaydi, ular doimiy ravishda yangi modellarni chiqarish orqali takomillashtirilmoqda. Bu ijtimoiy munosabatlarni rivojlantirish uchun zarur shart-sharoitlarni yaratadi, aloqa va ma’lumot almashish imkoniyatlarini sezilarli

darajada kengaytiradi. Internet axborotni qidirish va uzatish bilan bir qatorda eng mashhur aloqa vositasiga aylandi. Har yili Internet tobora ommalashib bormoqda, chunki undan ko‘proq foydalanuvchilar foydalanishni boshlaydilar.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoev “Biz yuqori malakali harbiy kadrlar tayyorlash, o‘quv-tarbiya jarayonlariga ilg‘or xorijiy tajribalarni, pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etishga...bundan buyon ham birinchi darajali ahamiyat qaratamiz. [1].

Barchamizga malumki, harbiy ta’lim o‘quv fanlarining aksariyat qismini amaliy o‘quv mashg‘ulotlari tashkil etadi. Harbiy ta’lim fanlarini zamonaviy axborot texnologiyalarining dasturiy vositalari yordamida turli elektron o‘quv adabiyotlarga bo‘lgan talablar, yoshlarga qurol- aslaxa va harbiy texnika bilan ishlash imkoniyatini yaratish muammosi harbiy ta’limda yanada dolzarblik kasb etmoqda. Axborot texnologiyalari harbiy amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini samaradorligini oshirishga va harbiy ta’lim sifat darajasini zamon talablari darajasiga ko‘tarishda, milliy armiyamiz safiga harbiy bilim sirlarini mukammal egalagan, intelektual salohiyatga ega milliy kadrlarni etkazib berishda katta yordam beradi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti, Qurolli Kuchlar Oliy Bosh Qo'mondoni Sh.M. Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida "...Ta'lim sohasining yana bir eng asosiy vazifasi bugungi kun uchun zarur bo'lgan yangi avlodni, ilm-fan va o'z ixtisosligi asoslarini puxta egallagan, bilimli yoshlarni tarbiyalashdan iboratligi shubhasiz...", - deb ta'kidlagan. [2].

Malumki, pedagogik ta’lim tizimiga axborot texnologiyalarini joriy etishda mavjud gipermatn, gipermedia, grafika, multimediya, animatsiya vositalari va ovoz dasturlaridan foydalanish uzluksiz ta’lim tizimini sifat va samaradorligini oshirishda yaxshi samara bermoqda [3].

O‘quv adabiyotlari muayyan ta’lim turi (yo‘nalishi yoki mutaxassisligi) o‘quv rejasida qayd etilgan fanlar bo‘yicha tegishli o‘quv dasturlari asosida zarur bilimlar majmuasi keltirilgan, o‘zlashtirish uslublari va didaktikasi yoritilgan (shu jumladan, xorijiy tarjimalar) manba bo‘lib, ikki xil shaklda tayyorlanadi.

Elektron o‘quv qo‘llanmalar axborot texnologiyalari asosida ma’lumotlarni jamlash, tasvirlash, yangilash, saqlash, bilimlarni interaktiv usulda taqdim etish va nazorat qilish imkoniyatlariga ega bo‘lgan manba.

Har bir elektron qo‘llanma alohida ko‘rinishda bo‘lishi va ma’lum bir standart talabga javob berishi lozim. Elektron qo‘llanma-to‘rt turga bo‘linishi mumkin:

1 tur**:** o‘quv materialini faqat verbal (matn) ko‘rinishida taqdim etadigan;

2 tur**:** o‘quv materialini verbal (matn), ikki o‘lchamli grafik shaklida taqdim etilgan;

3 tur**:** «multimedia» (multimedia – ko‘p vositali) qo‘llanmasi, ya’ni ma’lumot uch o‘lchamli-grafik ko‘rinishda, ovozli, video, animatsiya va qisman verbal (matn)

shaklida taqdim etiladigan multimediali elektron qo‘llanma;

4 tur**:** o‘quv materiali (his qilinuvchi, seziladigan) xususiyatli ma’lumotlar vositasida bayon qilinib, o‘rganuvchini "ekran olamida" stereo nusxasi tasvirlangan real olamga kirish va undagi ob’ektlarga nisbatan harakatlanish tasavvuri yaratiladigan elektron qo‘llanma.

Elektron o‘quv qo‘llanmalarining afzalliklaridan biri mustaqil harbiy ta’lim olishni, ijobiy fikrlashni, harbiy malaka hamda ko‘nikmalarni shakllantirish orqali harbiy o‘quv materiallarini va harbiy malumotlarni har tomonlama chuqur o‘zlashtirilishiga mo‘ljallanganligi, berilgan harbiy o‘quv mashg‘ulotlarni amalda bajara olish imkoniyatlarini o‘zida jamlay oladi. Shuningdek, ushbu turdagi adabiyotlarda Chaqiriqqacha harbiy ta’lim talabalarning yoshi va fiziologik xususiyatlarini hisobga olganligi jihatidan anaanaviy o‘quv adabiyotlari va o‘quv materiallarini bayon etadigan plakatlardan afzallik jihatidan ajralib turadi.

Ta’lim tizimida o‘quv adabiyotlarining elektron versiyasini yaratishga katta ahamiyat berilmoqda. Buning sababi birinchidan, elektron versiyada axborotlar zamonaviy usulda multimediya va animatsiya vositalari yordamida to‘laqonli yoritiladi. Elektron o‘quv qo‘llanma darslikning asosiy etiborli hususiyati ham ana shunda. Ikkinchidan, olingan bilimlarni interaktiv usulda nazorat qilish imkoniyati mavjud bo‘ladi. Uchinchidan, yaratilgan o‘quv adabiyotlarning bugungi holati talabaga og‘irlik qiladi, binobarin uning elektron versiyasini disketga olib, undan boshqa kompyuterlarda ham foydalanish imkoni mavjud. Agar o‘quv adabiyotlarning elektron versiyasi serverga joylashtirilsa, undan bir vaqtda bir necha talaba turli kompyuterlarda foydalanishi mumkin.

Elektron o‘quv qo‘llanmalar tuzilmasi quyidagi o‘quv bo‘limlarni o‘z ichiga olishini tavsiya eish mumkin:

- Harbiy ish asoslari;
- Otish tayyorgarligi;

Harbiy ish asoslari – bu harbiy faoliyatning fundamental tamoyillari, bilimlari va amaliy ko‘nikmalarini o‘z ichiga oladi.

Harbiy ish asoslarini mukammal o‘rganish harbiy xizmatda muvaffaqiyatli bo‘lish, milliy xavfsizlikni ta’minlash va har qanday xavfga tayyor turish uchun muhimdir.

Malumki, **otish tayyorgarligi** o‘quv mashg‘ulotlarining aksariyat qismini amaliy mashg‘ulotlar tashkil etadi. Bu amaliy mashg‘ulotlarda qo‘llaniladigan harbiy texnika va qurol-aslaxalarning yo‘qligi sababli, otish tayyorgarligi bo‘limining o‘quv mashg‘ulotlarida harbiy o‘quv asboblar, snaryadlar, nishonlar, o‘quv materiallarini bayon etuvchi plakatlardan keng foydalanib kelinmoqda. Biroq, otish tayyorgarligi

o‘quv mashg‘ulotlarida harbiy o‘quv asboblar, snaryadlar, nishonlar, o‘quv materiallarini bayon etadigan plakatlarda qurol-aslaxalarning ichki va tashqi ko‘rinishlari aks ettirilganligi esa, o‘quv mashg‘ulotlarni olib borishda yaxshi samara bermoqda. Ammo, bu harbiy o‘quv adabiyotlar va o‘quv materiallarini bayon etadigan plakatlarda berilgan qurol-aslaxalar bilan ishlash, hamda amalda bajarish imkoniyati yo‘qligi talabalarga harbiy bilim sirlari va amaliy ko‘nikmalarni shakillantirishda ko‘pgina qiyinchiliklarni keltirib chiqarmoqda.

Xulosa qilib aytish mumkinki, harbiy ta’lim jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish harbiy amaliy o‘quv mashg‘ulotlarini samaradorligini oshirishga va harbiy ta’lim sifat darajasini zamon talablari darajasiga ko‘tarishga, elektron o‘quv qo‘llanmalarni yaratishga va bu qo‘llanmalar avvalo boy ilmiy ma’lumotga ega bo‘lishi bilan bir qatorda, o‘quv jarayonida boshqa qo‘llaniladigan dars berish uslublaridan farqli ravishda bo‘limning mazmuniga tegishli ayrim nozik tushunchalari to‘g‘risida talabalarga to‘liq bilim berishga va yashirin xarakterga ega ob’ektlarni o‘rganishga imkon berishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh. Mirziyoevning O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 28 yilligi va Vatan himoyachilari kuni munosabati bilan bayram tabrigi. https://xs.uz/uzkr/post/shavkat-mirziyoev.
2. Sh.M. Mirziyoyev o'zining "Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobi.
3. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish nazariyasi va amaliyoti: Ped.fanl.dokt. diss. T.: 2007.
4. Sotiboldiev A., Karimjonov A. Harbiy pedagogika. — Sharq nashriyoti matbaa Aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati, Toshkent. – 2005.